


94. Doiraning ulushi. Soatlar va minutlar

Yondosh mavzu:
soat turlari.


Aylana, radius,
sektor.



1. O'ngda oddiy soat, chapda gulsoat tasvirlangan. Ularda qanday umumiylik bor? Nimasi bilan farq qiladi? Gulsoat nechta bo'lakka bo'lingan?



2. a) Agar soatlar bo'yicha hisoblasak, siferblat nechta bo'lakka bo'lingan? Agar minutlar bo'yicha hisoblansa-chi?
b) Sariq sektor bu aylananing qanday qismini tashkil qiladi? Javobingizni tushuntirib bering.



Bir soatda 60 minut bor.

$$1 \text{ h} = 60 \text{ min}$$





Bir minut soatning oltmishdan bir qismini tashkil qiladi.

$$1 \text{ min} = \frac{1}{60} \text{ h.}$$

94. Doiraning ulushi. Soatlar va minutlar



3. Minut mili bir soatda bir marta to'liq aylanadi. Bu minutlar soatning qanday ulushini tashkil qiladi?



4. Yozing:


- 4 minutda, 25 minutda, 1 soatda necha sekund bor?
- 120 sekundda, 360 sekundda, 4 soatda necha minut bor?
- 7200 sekundda, 3 sutkada, 1 haftada necha soat bor?



5. Darslar 8:00 da boshlanib, 12:30 da tugaydi. Shu vaqt ichida necha to'liq minut o'tadi? Necha to'liq sekund o'tadi?



6. Bu sxemada bir sutkada elektron va mexanik soatlarda vaqtning qanday belgilanishi ko'rsatilgan.



Soat 15:00 ni, kechki soat 17 ni, 20:20 ni, 22 h 30 min ni, 21:50 ni yana qanday aytish mumkin? "Yarim kun" yoki "yarim tun" so'zlari bilan soat necha bo'lganini bilamiz?



7. Hisoblang:

$$7 \text{ h } 25 \text{ min} - 3 \text{ h } 28 \text{ min}$$

$$18 \text{ min } 58 \text{ s} + 13 \text{ min } 39 \text{ s}$$

$$5 \text{ h } 14 \text{ s} + 3 \text{ h } 17 \text{ s}$$

$$5 \text{ h } 29 \text{ min} + 8 \text{ h } 34 \text{ min}$$


$$45 \text{ min } 22 \text{ s} - 12 \text{ min } 48 \text{ s}$$

$$8 \text{ h } 20 \text{ s} - 2 \text{ h } 124 \text{ s}$$

94. Doiraning ulushi. Soatlar va minutlar.



8. Ko'pgina gullarning aniq ochilish va yopilish vaqtlari bo'ladi. Bu gullar taxminan qancha vaqt ochiq turishini hisoblang.



9. Hisoblang.

$$3 \text{ h } 46 \text{ min} + 7 \text{ h } 19 \text{ min} - 2 \text{ h } 55 \text{ min} = \dots \text{ min}$$


$$80 \text{ s} \cdot 14 - 12 \text{ min } 15 \text{ s} + 64 \text{ 000 s} : 32 = \dots \text{ s}$$

$$1 \text{ hafta} + 38 \text{ soat} = \dots \text{ soat}$$

$$1 \text{ mart} + 1 \text{ aprel} + 1 \text{ may} = \dots \text{ kun}$$



10. Madina biologiya to'garagi mashg'ulotiga qachon kelganini toping. Mashg'ulot qachon tugagan? Mashg'ulot qancha vaqt davom etgan?



Mashg'ulotning boshlanishi

Mashg'ulotning tugashi